

## XARAKTER-ÓZGARUVCHAN XUSUSIYAT

*Buxoro innavatsion ta'lim va tibbiyot Instituti*

*Psixologiya fakultiteti 1-kurs*

*2.24-guruh talabasi*

*Imomova Yulduz Botir qizi*

*Buxoro 2024*

Xarakter-adabiyot va san'at asarlarida xususiy belgilari mukammal tasvirlangan va ózida fe'l-atvorning tarixan aniq tipini mujassamlashtirgan, shuningdek, muallifning manaviyestik konsepsiyasini ifodalagan inson obrazi. Har bir inson xarakteri qisman genetik omillarga bo'g'liq. Masalan, dopamin va serotonin kabi neyrotransmitterlarning darajasi bizning xatti-xarakatlarimiz va temperatimizga ta'sir kórsatadi. Bu shuni anglatadiki, genetik meros bizni qanchalik optimistis yoki xavotirli bólishimizga bevosita ta'sir qiladi. Kópchilik xarakterni qat'iy deb hisoblaydi, ammo psixologik izlanishlar shuni kórsatadiki, inson xarakteri umr bóyi ózgarishga qodir. Yaxshi yoki yomon odatlar, tajribalar va atrof-muhit ta'siri orqali xarakterni ózgartirish mumkin. Inson xarakteri bazan tana tili orqali ifodalanadi. Masalan, kóz bilan muloqot qilish, qòlning ochiq yoki yopiq bòlishi, yoki turish holati insonning ichki dunyosini va fe'l-atvorini aks ettirishi mumkin. Xarakter tushunchasi yunoncha sóz bólib, "charakter" ya'ni bosilgan qiyofa yoki xislat degan manoni anglatsada, ammo u psixologiyada tor manoda qóllaniladi. Shu boisdan insonning barcha xususiyatlarini, xarakter xislatiga kiritib bólmaydi.

Shuningdek, xarakter tuzilish, xususiyatlari tarkibiga uning ózgaruvchanlik darajasini ham kiritish maqsadga muvofiqdir. Chunki, xarakterning barqarorligi ham, ózgaruvchanligi ham moslashish faoliyatining zaruriy shartlaridan hisoblanadi. Xarakter va tashqi muhitning yashirin uygunligi - bu insonning fe'l-atvori va uni órab turgan ijtimoiy, ma'naviy, madaniy, geografik hamda ekologik omillar órtasidagi nozik, kòpincha bilinmas aloqani órganadi. Masalan, issiq iqlimda yashaydigan odamlar qat'iyatli, mehnatsevar, ochiqkóngil va moslashuvchan bólishadi. Dengiz bóyida yashovchilar esa xayoliy va ijodiy bólishadi. Insonning xarakteriga uning yashash xonasi, mebelning joylashuvi, ranglar va yoruqlik darajasi ham ta'sir kórsatadi. Ushbu yashirin uygunlik insonning xarakteri va tashqi sharoitlar órtasidagi murakkab, ammo qiziqarli bo'g'liklikni ochib beradi. Xarakter - bu insonning ichki dunyosini ifodalovchi noyob boylik. Shuni unutmaslik kerakki, xarakter - tu'g'ma emas, balki ózgaruvchan xususiyatdir.

Har birimiz ózimizni anglash yòlida xarakterimizni mustahkamlashtirishga intilsak, nafaqat ózimizga, balki jamiyatimizga ham foyda keltiramiz. Axir mustahkam xarakter - yorqin kelajak sari qòyilgan eng muhim qadamdir. Shunday qilib, shaxs

òzining butun hayoti davomida óz xatti-xarakatlari va odatlari bilan òz xarakter xislatini ózi yaratadi va boshqaradi. Xarakter-insonning eng buyuk boyligi bólib, uni shakllantirish orqali taqdirini òzgartirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vasila Karimova “Psixologiya “, Toshkent, 2000.
2. Foziev E. “Umumiy psixologiya “ 1-kitob, Toshkent, 2004
3. “Psixologiya atlası” M.Gomezoz tahririda Moskva 1986
4. M.G.Davletshin. “Psixologiya”, Izohli lugati, Toshkent 2000
5. M.G.Davletshin. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 2002.
6. Foziev E. «Umumiy psixologiya», 2 –kitob, Toshkent, 2004.
7. A.V.Petrovskiy. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 2020.
8. Anastazi A. Psixologicheskoe testirovaniya v dvux tomax. M., 1992.
9. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab oqituvchisi psixologiyasi. T., 1997.
- 10.Foziev E. Psixologiya. T., 1994.